



ILMIY TADQIQOTNING DOLZARBLIGINI ASOSLASH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Komiljonova Tabassum G'ulomboy qizi

Urganch RANCH texnologiya universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15516483>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning dolzarbligini asoslashning nazariy va metodologik jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqot ishining ilmiy-ijtimoiy ahamiyati, zamonaviy muammolar bilan bog'liqligi va amaliy yechimga yo'naltirilganligi dolzarblik mezonlarini tashkil etadi. Muallif dolzarblikni asoslashda qo'llaniladigan usullar, mezonlar va yondashuvlar haqida fikr yuritadi hamda ilmiy izlanishlarning amaliy qadriyatlarini ochib beradi.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological aspects of substantiating the relevance of scientific research. The scientific and socio-social significance of the research, its connection with contemporary issues, and its orientation toward practical solutions constitute the main criteria for relevance. The author discusses the methods, criteria, and approaches used to justify relevance and reveals the practical value of scientific inquiry.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и методологические аспекты обоснования актуальности научного исследования. Научно-социальная значимость работы, её связь с современными проблемами и ориентация на практическое решение составляют основные критерии актуальности. Автор анализирует методы, критерии и подходы, применяемые при обосновании актуальности, и раскрывает практическую ценность научных изысканий.

Kalit so'zlar: ilmiy tadqiqot, dolzarblik, metodologiya, muammo, yechim, yangilik, amaliy ahamiyat.

Keywords: scientific research, relevance, methodology, problem, solution, novelty, practical significance

Ключевые слова: научное исследование, актуальность, методология, проблема, решение, новизна, практическая значимость

Ilmiy tadqiqot faoliyati zamonaviy jamiyatning innovatsion rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Har qanday ilmiy izlanish avvalo uning dolzarbligi bilan asoslanadi. **Dolzarblik** – bu tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatga egaligini, mavjud muammo yoki bo'shliqni to'ldirishga xizmat qilishini anglatadi. Tadqiqotning dolzarbligi ilmiy muammoning mavjudligi va uni yechishga bo'lgan ehtiyoj orqali aniqlanadi^[1]. Ushbu tezisdagi ilmiy tadqiqot dolzarbligini aniqlash va asoslashning zaruriy jihatlarini, metodologik



yondashuvlari, hamda ilmiy izlanish samaradorligini oshirishdagi o'zni yoritib beriladi.

Ilmiy tadqiqotning dolzarbligi tushunchasi

Ilmiy yangilik tadqiqotning oldingi ishlar bilan solishtirilgan holatda yangi yondashuvlar yoki natijalarni taklif etishidir^[2]. Ilmiy tadqiqotning dolzarbligi – bu tadqiqot mavzusining muhimligi, ijtimoiy zarurati, nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi bilan belgilanadi. Ilmiy ishda dolzarblikni asoslash quyidagi savollarga javob berish orqali amalga oshiriladi:

- Mazkur mavzu nega hozirgi kunda muhim?
- Bu muammo ilgari qanday o'rganilgan?
- Qanday ilmiy yoki amaliy bo'shliqlar mavjud?
- Tadqiqot qanday yangilik kiritadi?

Demak, dolzarblikni asoslash bu – mavzuni tanlashdagi ilk bosqich va butun tadqiqot ishining poydevoridir.

Dolzarblikni asoslashning nazariy mezonlari

1. Ilmiy yangilik – mavzuning ilgari yetarlicha tadqiq etilmagan jihatlarini o'rganish.
2. Muammolilik – mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik yoki ilmiy muammolarga yechim izlash.
3. Konseptual asos – mavzuga doir mavjud nazariy yondashuvlarni tahlil qilish.
4. Tadqiqot obyekti va predmeti – aniq chegaralangan ilmiy doirani aks ettirish.

Amaliy mezonlar va yondashuvlar

Amaliy dolzarblik, odatda, jamiyatda mavjud real muammolarni hal qilish imkoniyatlari bilan o'lchanadi^[3].

1. Jamiyat ehtiyojlariga moslik – tadqiqot natijalari real hayotda qo'llanishi mumkin bo'lishi kerak.
2. Ilmiy-amaliy integratsiya – nazariy g'oyalarning amaliyotga tatbiq qilinishi. Dolzarblikni asoslashda mavzu bo'yicha ilgari olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish zarur bo'ladi^[4].
3. Innovatsion yechimlar – mavjud muammolarga ilg'or texnologiyalar, yondashuvlar asosida yechimlar taklif qilish. Dolzarblikni asoslashda mavzu bo'yicha ilgari olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish zarur bo'ladi^[4].
4. Tadqiqot samaradorligi – ish natijalarining foydalilik darajasi va kelgusida rivojlantirish imkoniyatlari.

Xulosa



Ilmiy tadqiqotning dolzarbligini asoslash nafaqat tadqiqotga kirishishning birinchi qadami, balki uning mazmuniy va metodologik asoslarini belgilovchi muhim omildir. Ilmiy ish muallifi dolzarblikni asoslar ekan, nafaqat mavzuning muammoliligini, balki uning nazariy va amaliy qadriyatlarini ham ko'rsatib bera olishi kerak. Shuningdek, dolzarblikni asoslash orqali tadqiqotning istiqbollari, kutilayotgan natijalari va foydasi ochib beriladi. Innovatsion yondashuvlar orqali tadqiqot mavzusi dolzarbligi yanada kuchaytiriladi^[5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Xaitov, A. T., & Jo'rayev, N. A. Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Gulyamov, S. S. Ilmiy izlanishlar asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Ilmiy tadqiqot ishlarini yuritish bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent: 2021.
5. Creswell, J. W. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. – London: SAGE Publications, 2014.
6. Denzin, N. K., & Lincoln, Y. S. (Eds.). The SAGE Handbook of Qualitative Research. – London: SAGE Publications, 2018.

